

O‘ZBEKISTON TAVALLUDI:

ilk SSSR davrida millat,
imperiya va inqilob

Adib Xolid



Toshkent
«Akademnashr»
2022

UO‘K: 94(575.1
KBK: 63.3(5O‘zb)
X 72

X 72 Adib Xolid

O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob
[Matn] / Adib Xolid. – Toshkent: «Akademnashr», 2022. – 424 b.

ISBN 978-9943-7575-4-7

UO‘K: 94(575.1
KBK: 63.3(5O‘zb)

Amerikalik taniqli olim Adib Xolidning ushbu kitobi dunyo xaritasida O‘zbekiston degan davlatning paydo bo‘lishi haqida. Muallif XX asr boshlarida yurtimizda kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qiladi, o‘sha davr qiyofasini bor ziddiyatlari bilan tasvirlashga harakat qiladi. Asar yurtimiz tarixiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Making Uzbekistan:
Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR,
by Adeeb Khalid,
originally published by Cornell University Press
Copyright © 2015 by Cornell University
This edition is a translation authorized by the original publisher.

Tarjimon:
Sardor Salim

ISBN 978-9943-7575-4-7

© Adib Xolid
«O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida
millat, imperiya va inqilob»
© «Akademnashr», 2022

*Bor mehr-muhabbatim ila
Xorun va Leylaga bag'ishlayman.*

Mundarija

Minnatdorlik.....	ix
Texnik eslatma	xiii
Kirish.....	1
I bob. Chor davri O'rta Osiyosida ziyolilar va islohotlar.....	29
II bob. Imkoniyat oni.....	58
III bob. Inqilobni milliyashtirish	91
IV bob. Buxoro musulmon respublikasi	119
V bob. Sovet hokimiyati o'rnatilishidagi mashaqqatlar.....	157
VI bob. Ogdagi inqilob	179
VII bob. Islohot va inqilob o'rtasidagi islom	219
VIII bob. O'zbekistonning yaratilishi	257
IX bob. Tojik qoldiq kategoriya sifatida	291
X bob. Mafkuraviy front	316
XI bob. Hujum.....	342
XII bob. Sovet tuzumiga qarab	363
Xotima.....	389
Glossariy	396
Foydalanilgan manba va adabiyotlar	398

O'n besh yil davomida ushbu kitobni yozish ustida izlanarkanman, ko'p, juda ko'p insonlar va institutlar oldida qarzdor bo'lib qoldim. Eng noyob resurs - o'qituvchilikdan ozod etilgan vaqt uchun Gumanitar fanlar bo'yicha milliy fond (National Endowment for the Humanities), Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika kengashlari (the American Councils for International Education), Amerika tadqiqot jamiyatlari kengashi (the American Council of Learned Societies), Nyu-Yorkdagi Karnegi korporatsiyasi (the Carnegie Corporation of New York) hamda Jon Saymon Guggenhaym fondi (John Simon Guggenheim Foundation)ga cheksiz minnatdorlik bildiraman. Kongress kutubxonasi qoshidagi Jon V.Klyug nomidagi olimlar markazi ushbu kutubxonada 2010 - 2011-yillarda olti oy tadqiqot o'tkazishimga moliyaviy yordam berdi. Ammo ushbu kitobni maromiga yetkazish grant beruvchilarga men va'da qilgan muhlatdan ham ko'proq vaqt oldi. Ularning barchasiga sabr-toqat bilan kutganlari uchun rahmat aytaman va yakuniy natija kutishga arzigulik ish bo'ldi degan umiddaman.

Pullada oilasiga, ayniqsa, Leon B.Pulladaga 2010-yil oktyabrida Prinston universitetida turkum ma'ruzalar o'qishga taklif qilgani uchun tashakkur aytaman. Aynan shu ma'ruzalar kitobning umumiy strukturasi boshdan-oxir o'ylab olishimga turtki berdi. 2010-yilning iyun oyida Parij shahridagi Fondation des Sciences de l'Homme tomonidan taqdim etilgan qisqa muddatli tadqiqot safari fransuz hamkasblar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yishga hamda Mustafo

Cho'qayning qo'lyozmalari bilan tanishishga imkon berdi. Shuningdek, ma'ruzalar davrida ushbu kitob materiallari bo'yicha bergan savol va fikrlari uchun ko'plab insonlardan cheksiz minnatdorman. Ayniqsa, eng foydali taqdimot 2012-yilning martida Berkli universitetidagi Rossiya tarixi to'garagida qilgan taqdimotim bo'ldi. Ishtirokchilarning fikrlari asarni qanday yakunlash borasida boshi berk ko'chadan chiqishimga ko'mak berdi va ushbu kitobning yakuniy qoralamasi yoziladigan yo'lga to'g'rilab qo'ydi.

IV bob «Usmonli imperiyasi va Sovet dunyosi orasidagi Markaziy Osiyo» sarlavhasi bilan dastlab «Kritika» (Критика. 2011. №2. – S.451 – 76) jurnalida dunyo yuzini ko'rdi. XII bob esa rus tilida «Рождение нации» sarlavhasi bilan «Неприкосновенный запас» jurnalida ilk chop etilgan (Неприкосновенный запас. 2011. №78. – S.34 – 46).

Mana, yillar davomida ko'plab do'stlarim va hamkasblarimning qo'llab-quvvatlovi, maslahati, dalda va ko'magidan behad foyda topdim. Men bilan qimmatli, har kim ham qo'lga kiritavermaydigan manbalarni bo'lishgan insonlarga alohida tashakkurimni aytaman. Hozirgacha xorijiy olimlarga yopiq bo'lib kelayotgan Toshkentdagi Kommunistik partiyaning arxivlarida 1991 – 1992-yillarda ishlashga musharraf bo'lgan Shoshana Keller o'z qaydnomalarini men bilan o'rtoqlashdi. Kitobning o'n birinchi bobidagi «O'z PAA» izohi bilan berilgan manbalar uning mehnati mahsulidir. Sh.Kellerning beminnat tuhfasisiz ushbu bob g'arib bo'lib qolardi. Kishiga huzur bag'ishlaydigan suhbat-u ajoyib mehmondo'stlikdan tashqari Stefan Dudoyinon Samarqandda fors tilida chop etilgan «Shu'layi inqilob» (*Shu'la-yi inqilab*) jurnalining raqamlashtirilgan nusxasini taqdim etdi. Sherali aka Turdiyevning sharofati bilan Toshkentdiligimda Laziz Azizzodaning nafaqada yurgan yillari «g'aladon uchun» yozgan qaydlaridan ikki nusxa oldim. Afsuski, Sherali akaga kitobimni ko'rish nasib etmadi. O'zbekistonga borganimda Rinat Shihabiddinov, Elyor To'raqulov (Musaboyev), Ergash aka Umarov behad ko'mak berib, alohida g'amxo'rlik ko'rsatishdi. Yozayotgan ishim davomida yo'lboshlovchilik qilgan do'stim Akrom Habibullayev esa past-baland yo'llarda beminnat yordam qo'lini cho'zdi. Bryus Grant do'stlik rishtasidan ham yuksakroqqa ko'tarilib, qo'lyozmalarimning so'nggi qoralamasigacha o'qib chiqdi. Shahzod Bashir bo'lsa ushbu harakatga aloqador uzluksiz monologlarni tinglab, yo'lning poyoniga yetgunimizcha o'zining dono maslahatlarini ayamadi. Qo'lingizdagi kitob Sergey Abashin, Laura Adams, Munira Azzot, Baxtiyor Bobojonov, Maykl Devid Foks, Klou Driu, Adrian Edgar, Gero Fedke, Vinset Furniyeu, Vladimir Genis, No'monjon G'afforov, Fran Hirsch, Pyotr Holkuist, Mariana Kamp, Emin Lelij, Terri Martin, Kris Myorfi, Dug Nortrop, Madelin Rives, Jeff Sahadeo, Paolo

Sartori, Paul Stronski, Barno opa Umarova, Frans Vennberg hamda Tomohiko Uyamaning beminnat ko'magi va qo'llovsiz g'arib ahvolda, aro yo'lda qolib ketgan bo'lardi. Uoker Adam, Meyhil Fouler va Artemiy Kalinovskiy bibliografik hamda muhim materiallardan nusxa olishda beg'araz yordam berishdi. Karlton kollejidagi hamkasblar uzoq yillar davomida menga ko'p ishlarda astoydil tirgak bo'lishdi. Skott Karpenter (bob bo'yicha chuqur fikr bildirgan inson), Syuzanna Ottovey va Devid Tompkinsga alohida rahmat deyman.

Roger Heydon qo'lyozmalarni qayta ko'rib chiqish orqali ularning puxta tayyorlanishiga hissa qo'shdi. Nihoyasi ko'rinmas loyihaning oxir-oqibat yaxlit kitobga aylanishi ustida u bilan ishlash maroqli bo'ldi. Roger, shuningdek, yakuniy xulosalarda behad asqatgan fikrlarni aytgan qo'lyozma taqrizchilarini ham did bilan tanlagan. Kitobdagi ajoyib xaritalarni Bill Nelson chizdi. Syuzan Barnet, Karen Laun va Emili Povers kitob tayyorlash jarayoniga quvonch bag'ishladi.

Loyiha davomida Karlton kolleji ishlash uchun eng bop joy bo'ldi. Mazkur kollej 2000 – 2001-yillarda o'qituvchilar malakasini oshirish uchun ajratilgan grant arxivlarga kirish imkonini berdi. O'shandan beri kollej grant ajratish va ilmiy-tadqiqot safarlarini qo'llab-quvvatlashda saxovat ko'rsatib kelmoqda. Jejn va Rafael Breynshteyn kafedrasida Osiyoshunoslik va tarix bo'yicha izlanishlarimga ko'rsatgan g'amxo'rliги uchun chin dilimdan minnatdorman. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix institutida 2000 – 2001-yillarda tadqiqot olib borishga muvaffaq bo'ldim, Markaziy Osiyo tadqiqotlarining Fransuz institutida esa chinakam hamkasblik ruhini his etdim. Shuningdek, asosiy izlanishlarimni olib borgan quyidagi muassasalar: O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining Nodir kitoblar bo'limi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Rossiya Federatsiyasining davlat arxivi, Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi, Rossiya davlat kutubxonasi, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi, Britaniya kutubxonasi, Istanbuldagi Otaturk kutubxonasi jamoalariga minnatdorligimni bildiraman. Illinoys universitetidagi Slavyan ma'lumotlar xizmati qator savollarimga javob bergani o'ta samarali bo'ldi. Karlton kollejidagi Laurens MakKinley Guld kutubxonasining xodimlariga beminnat ko'mak uchun ko'pdan-ko'p rahmat aytaman.

Boshlagan ishimni oxirigacha qo'llab turgan ahli oilam oldida esa umrbod qarzdorman. Kitobni yozishga o'tirgan chog'im qizim Leyla hali tug'ilmagandi. Shuning uchun u otasining bu ishga boshi bilan sho'ng'imagan paytni hali ko'rmagan ham. U loyiha yakuniy shaklini olayotganidan juda xursand hozir. Xorun «4» raqamli tor-tanqis xonadonimizdagi mashaqqatlariga chidab, shu

kitob bilan birga ulgʻaydi. U universitetni bitirishidan avval kitobimga nuqta qoʻyaman deb oʻylagandim va shunday boʻldi. Sheril esa uni uchratganimdan beri yoʻlchi yulduzimga aylangan. Uning mehr-muhabbati, dalda-tasallisiz hech bir ishim yakuniga yetmasdi. Uning oldidagi qarzimni soʻz bilan ifodalashim qiyin.

Nomenklatura

Ushbu kitobda etnik va milliy o'zliklar hali juda o'zgaruvchan bo'lgan davr tadqiq etiladi. Bugungi nomlarni orqa sana bilan qo'llashdan ko'ra o'sha davrda qabul qilingan nomlarni imkon boricha ishlatishga urindim. 1917-yilgacha ushbu kitobda muhokama qilinayotgan aholi uchun eng jo'n ifoda «Turkiston musulmonlari» edi. Bu iboradagi «musulmon» so'zi aholining sifati bo'lib, u taqvodor yoki musulmon siyosatiga ixlos qo'yg'an insonni anglatmaydi. Kitobda muhokama qilingan «musulmon ziyolilari» islomni isloh qilishdan tortib uni to'liq rad etishgacha bo'lgan pozitsiyalarda turganlar. Qo'shimchasiga, musulmon aholini tasvirlashda «mahalliy» va «yerli» atamalarini muhokama chog'i o'zaro almashtirib qo'lladim. «Mahalliy aholi», odatda, «yevropalik»larga – O'rta Osiyoga Rossiya istilosidan keyin ko'chib kelgan muhojirlariga qarshi qo'yiladi. Bu muhojirlar asosan ruslar edi (1917-yilgacha bu atama hozir biz ukrain deb ataydigan millatga ham tegishli bo'lgan), ammo polyaklar, nemislar, Ashkenazi yahudiylari kabi Rossiya imperiyasining Yevropadagi hududlaridagi turfa vakillari ham «yevropaliklar» degan so'z bilan qamrab olingan. Kundalik turmush tarzi nuqtayi nazaridan bu «kelgindilar» (пришлые) bir-birlariga ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, o'zlarini mahalliy aholidan yaqqol ajratar edi. Men kitobda «yevropalik» istilohini mana shu «kelgindilar»ning bariga birdek qo'llayverdim, garchi ba'zida

«rossiyalik» yoki «rus» atamasini ham maʼnodosh tarzida ishlatgan boʻlsam-da. Bunday qoʻllash «Yevropa» va «yevropalik» soʻzlarining maʼno-mazmuni vaqt va makon evrilishlarida oʻzgarib turishini, bu maʼno qatʼiy, oʻzgarmas degani emasligini eslatib turadi.

Markaziy Osiyo ikki lingvistik tamaddun – turkiy va fors tili uchrashgan makon edi. Turkiy til forschaga qarshi qoʻyilgan boʻlsa-da, bir-biridan farqlanuvchi qator lahjalardan iborat boʻlib, bular XX asr boshiga kelib toʻlaqonli alohida tillarga ajralib ketgan. «Oʻzbek» atamasi inqilobdan avval Movarounnahrning turkiy adabiy tiliga nisbatan qoʻllanilgan va men ham shunday foydalandim. Boshqa tomondan, IX bobda koʻrsatib oʻtganimdek, tojik soʻzi 1924-yildan avval Markaziy Osiyoda soʻzlashilgan fors tili uchun hech ishlatilmagan, bu til shunchaki forsiy (fārsī) deb nomlanib kelgan. Men ham Tojikiston tashkil etilishidan oldingi davr tili uchun «forsiy» soʻzini ishlatdim. 1925-yilgacha ruscha atama boʻlmish «qirgʻiz» oʻzlarini qozoq va qirgʻiz deb atagan xalqlarni ifodalagan. Mazmuniga qarab «qirgʻiz» soʻzini «qozoq va qirgʻiz» yoki «qozoq» tarzida ham tarjima qildim. Shu bois 1920-yili tuzilgan ilk qozoq avtonom respublikasi dastlab Qirgʻiz respublikasi (yoki Qirrespublika) deb nomlangan. Men buni Qozoq respublikasi tarzida oʻgirdim.

Sovet Ittifoqining 1920-yillardagi siyosiy va maʼmuriy tuzilishi haqida tasavvur hosil qilish uchun Stefen Kotkinning mukammal «Ohanrabo togʻi: Stalinizm sivilizatsiya qabilida» (Berkli, 1995) (*Magnetic Mountain: Stalinism as a Civilization*) kitobining XIX – XXIII boblariga qarang. Turkistonda (va 1926-yilgacha Oʻzbekistonda) toʻrt pogʻonali boshqaruv iyerarxiyasi mavjud boʻlgan, ular oblastdan boshlab, uyezd, volost orqali qishloq tomon pasayib borgan. 1926-yildagi hududiy lashtirish (районирование) natijasida uch bosqichli maʼmuriy tizim oʻrnatildi: okrug, rayon va qishloq.

Rossiya imperiyasida Yulian taqvimini qoʻllangan. Bolsheviklarning zamonaviy islohotlaridan biri uni 1918-yil 1-fevraldan Grigorian taqvimiga oʻtkazish boʻldi. Men ikki sanani koʻrsatishdan imkon qadar qochib, tarixiy sanalarni voqealar sodir boʻlgan davrdagi taqvim boʻyicha keltirdim. 1918-yil boshidagi sanalar uchun Yulian taqvimidan foydalanib, sanalarni qavs ichida «eski vaqt» (e.v.) qisqartmasi bilan berdim.

Havolalarda keltirilgan barcha veb-saytlar 2015-yil 1-yanvar sanasi holatida faoliyat yuritayotgan edi.

Ismlar va nomlar

Markaziy Osiyoda familiya tushunchasi bu yerda muhokama etilgan davrdagina paydo bo'ldi va har kim ham uni qo'llayvermasdi. Ko'pgina mualliflar faqat taxallusi bilan ma'lum va mashhur edi. Bunday kishilarni o'sha davrda xalq orasida tarqalgan nomi bilan atadim (masalan, Munavvarqori, Abdurashidxon o'g'li emas; Cho'lpon, Sulaymon emas; Behbudiy, Mahmudxo'ja emas). 1920-yillarda mualliflar o'z ijodida (ba'zan xavfsizlik nuqtayi nazaridan, ba'zida shunchaki) taxallus yoki initsiallardan foydalanishgan. Men nomlarni asarlarida qanday ko'rsatilgan bo'lsa, xuddi shu holatda keltirishga urindim, ammo muallif nomi aniq bo'lgan hollarda qavs ichida batafsil ismini ham keltirib o'tdim. Bunda o'sha davr taxalluslari haqida shoir Oltoy Bois Qoriyevning keksaygan chog'i nashr etgan asari juda qo'l keldi. 1920-yillarning adabiy hayoti vakili Oltoy 1930-yili qamoqqa olinib, umrining ko'p yilini GULAGda o'tkazadi va 1960-yillarda ijodga qaytadi (Qarang: Қориев Б. Адабий тахаллуслар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1967. №1. – В.51 – 58).

Sobiq Sovet Ittifoqidagi barcha joy nomlari XX asr talotumlarida butunlay o'zgarib ketdi. Bu yerda o'sha davrda amalda bo'lgan joy nomlarini ko'rsatdim. Joy nomlarining ruscha shakli mahalliy aholinikidan farq qilganda (masalan, Olmota va Almatiy) men mahalliy tillardagi nomlanishlarning transliteratsiyasidan foydalandim (masalan, Xodjent emas, Xo'jand qabilida).